

M. ALCOTTNNING “LITTLE WOMEN” ROMANIDAGI INTERTEKSTUAL BIRLIKLER TAHLILI

Adamboeva Nafisa Qodirberganovna

Farg‘ona davlat universiteti, Chet tillari fakulteti o‘qituvchisi

jasurbekdilnura@gmail.com

Karimjonova Munisa Jahongir qizi

Farg‘ona davlat universiteti, Chet tillari fakulteti talabasi

karimjonovamunisaxon05@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada L.M.Alcottning “Little women” romani asosida intertekstual birliklardan biri maqol tanlanib romanda uchragan maqollarni o‘zbek xalq maqollari bilan taqqoslab tahlil qilindi hamda maqollarning o‘xshashliklari va farqli jihatlari ko‘rib chiqildi.

Аннотация: На основе романа Л.М. Олкотт «Маленькие женщины» в статье выбрана и проанализирована одна из интертекстуальных единиц – пословица, проведено сравнение встречающихся в романе пословиц с узбекскими народными пословицами, а также рассмотрены сходства и различия пословиц.

Abstract: In the article the intertextual connections were identified based on the novel ”Little women” by L.M.Alcott , and the selected proverbs were analyzed in comparison with Uzbek proverbs. The similarities and differences in the proverbs were also discussed.

Kalit so‘zlar: Intertekstuallik, badiiy matn, badiiy makon, intertekstual birliklar, immersiv hikoyalar, syujet, intertekstuallik muammosi, personajlar.

Ключевые слова: Интертекстуальность, художественный текст, художественное пространство, интертекстуальные единицы, иммерсивные истории, сюжет, проблема интертекстуальности, персонажи.

Key words: Intertextuality, artistic text, artistic space, intertextual units, immersive stories, plot, problem of intertextuality, characters.

Hozirgi kunda badiiy matnni boshqa bir matnlar bilan bog‘lab o‘rganish, ular orasidagi uzviy aloqani aniqlash, matnlarni bog‘lashga xizmat qiluvchi birliklarni tahlil qilishga e’tibor kuchaydi. Bu izlanish va tahlillar natijasida fanga intertekstuallik tushunchasi kirib keldi. Keyingi yillarda vujudga kelib shakllangan matn lingvistikasi, lingvokulturologiya va lingvopoetika kabi tilshunoslikning yo‘nalishlarida badiiy matn tarkibidagi o‘zga matn yoki uning birliklari intertekstuallik atamasi ostida tadqiq qilib kelinmoqda. Intertekstuallik atamasi birinchi bo‘lib 1967-yilda fransuz olimasi Y.Kristeva tomonidan “Baxtin, so‘z, dialog va roman”[1] risolasida ilmiy termin sifatida ishlatilgan. Olima intertekstuallik hodisasi asosan ilmiy va badiiy matnda uchrashini ta‘kidlab, ko‘proq badiiy matnda intertekstuallik tamoyiliga urg‘u beradi [2]. Lug‘atlarda ham intertekstuallik tushunchasiga ta’riflar berilgan bo‘lib, ulardan birida shunday deyilgan: Intertekstuallik bu- matn ma’nosining boshqa matn orqali shakllanishidir. Zero, hozirgi har qanday badiiy matnda intertekstuallik elementlariga duch kelamiz va ularni bemalol tahlilga tortishimiz mumkin. Intertekstuallik hodisasi shu paytgacha tilshunoslari, adabiyotshunoslari, faylasuflari, madaniyatshunoslari, umuman o‘rganish obyekti matn bo‘lgan bir qator soha olimlari tomonidan tadqiq qilingan va hali ham bu jarayon davom etmoqda. Intertekstuallik hodisasining bevosita lingvistikaga ham dahldorligi haqidagi qarashlar esa ingliz olimi Jonatan Kuller nomi bilan bog‘liq. U o‘zining “Пресуппозиция ва интертекстуаллик” nomli maqolasida intertekstuallikning matndan presupozitsiyaga bog‘liqligiga o‘z e’tiborini qaratdi [3]. Shuningdek, bir necha ingliz tilshunos olimlari ham intertekstuallikning paydo bo‘lishi, nazariy ahamiyati haqida tadqiqot olib bordi. Xusussan, H. Fairklough, Beaugrande kabi tilshunos olimlar intertekstuallikni matn tilshunosligidan paydo bo‘lgan deydi [4]. Intertekstuallik muammosini o‘rgangan ko‘plab olimlar uning aksariyat hollarda badiiy adabiyot doirasida amal qilishini ta‘kidlaydilar. Intertekstuallik til belgisi sifatida badiiy matnda turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Masalan, havolalar, allyuziya, aforizmlar kabi. Badiiy matnni tushunishda intertekstual birliklarning o‘rnini belgilash uchun uning turlariga

to‘xtalishimiz lozim. Rus tilshunosi Fateva intertekstual birliklar (allyuziya, reminissensiya, epigraf, sarlavha, havola(sitata), aforizmlar, maqol, matal) o‘zining tadqiqotlarida keltirgan[5].

Badiiy matn - bu ma’lum bir madaniyatda mustahkamlangan dunyoning semiotik modeli bo‘lgan semiosfera modeli. Shu bois, matn maydoni dunyoning modelidir. U quyi darajalarini yuqoriroqlarga bo‘ysundiruvchi tizim sifatida tashkil etilgan. Zero, matnning o‘zi borgan sari kasrli komponentlarga bo‘linadigan birlik bo‘lsa-da, semantik komponentlar ierarxiyasi uni tashkil etish va tartiblilik shakllaridan biridir. Badiiy makon esa, har qanday modellashtirish tizimi kabi, tuzilgan. Badiiy matn tuzilishida personajlar ko‘pincha turli axloqiy tamoyillarga amal qilgan holda ijtimoiy me’yorlarga turlicha munosabatda bo‘ladilar. Shular orasida ingliz adabiyotining yorqin namunasi sifatida L.M.Alkott tomonidan yozilgan “Kichik ayollar” romanida inetrtekstuallik namunasi yaqqol namoyon bo‘lgan. Roman Luiza Mey Alkott tomonidan yozilgan, birinchi marta 1868-yilda nashr etilgan. Unda to’rt opa-singillar - Meg, Jo, Bet va Emi - urushi davrida ulg’ayganliklari haqida hikoya qilinadi. Romanda oila, opa-singillik, sevgi, qat’iy gender rollari o’rnatilgan jamiyatdagi mustaqillik va o’zlikni anglash uchun kurash kabi mavzular o’rganiladi.. Har bir opa-singil o’z qiyinchiliklari va tajribalariga duch keladi, lekin oxir-oqibat sevgi, mehribonlik va qat’iyatning qadrini bilib oladi. "Kichik ayollar" ko‘p yillar davomida ko’plab filmlar, spektakllar va teleko’rsatuvlarga moslashtirilgan va Amerika adabiyotining sevimli klassikasi bo‘lib kolmoqda. U o‘zining abadiy mavzulari va unutilmas personajlari bilan barcha yoshdagi kitobxonlar bilan rezonanslashishda davom etmoqda.

❖ *"To'kilgan sut uchun yig'lashdan foyda yo'q". ("It's no use crying over spilled milk.")*. Bu maqol ko‘pincha sodir bo‘lgan va o’zgartirib bo‘lmaydigan narsadan xafa bo‘lish ma’nosizligini bildirish uchun asarda ishlatilgan. Asarda qahramonlar ko’plab qiyinchiliklarga uchrashadi va buni yengish uchun onalari tomonidan aytilgan ushbu maqol ular uchun qo’l keladi. O’zbek xalq maqollari orasida ham xuddi shunday ma’noga ega bo‘lgan maqol bor: “*O’tib ketgan yomg’irning*

ketidan o’pkalama”. Bilamizki har bir millatning yashash sharoiti, qadriyatlar, albatta , uning har qanday badiiy matnida o’z aksini topadi. O’zbek maqolida ham ingliz maqolida ham ko’rishimiz mumkinki, sut va yomg’ir so’zlari milliy kodlarga ishora qilmoqda. Inglzlarda doimo uyqudan oldin sut ichilsa, o’zbeklarning avvalgi mehnat faoliyatining ko’p qismi dehqonchilikdan iborat bo’lgan hamda yomg’ir bu kasbda eng muhim ahamiyatga ega bo’lgan omillardan biri hisoblangan. Ushbu o’zbek xalq maqolida ham o’tib ketgan ishlar uchun qayg’urish foydasaiz ekanligiga urg’u berilmoqda.

❖ *“Vaqt va to’lqin hech kimni kutmaydi”.*(*“Time and tide wait for no man.”*) ushbu maqol odamlarga vaqt va imkoniyatlar hech kimni kutmasligini eslatish uchun ishlatalidi va ular mavjud bo’lganda ulardan foydalanish muhimdir. Asar qahramonlari ham ba’zida berilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanishdi ba’zan esa imkon kelganini xatto payqashmadi ham. O’zbek xalq maqollaridan biri: *“Vaqting ketdi – naqding ketdi”* maqoli ushbu ingliz maqoli bilan ma’no jihatdan ayni mos keladi. Ya’ni bunda qimmatli vaqting ketgani bu sening naqd puling ketdi, sen foydadan qolib ketding. Ammo vaqtdan unumli foydalanilganda unda, albatta, naqd bo’lar edi. Ikkala maqolning o’xhashlik jihat shundaki, ikkisi ham vaqtning qadri uning tezkorligi va doimo barchaga kerakligini anglatishdan iboratlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Beagrande R. A. De. Dressier W. Introduction to text linguistics. L.:N.Y.,1981. - XVI.-270p.
- 2.Kristeva J.Bakhtine, le mot, le dialogue et le roman Texte. / J. Kristeva // Critique, 1967. T. 23, № 239, pp.
- 3.Presupposition and Interrextuality Author (s): Jonathan Culler Source:MLN. Vol.91.NO.6 Comparative Literature(Dec., 1976). Pp. 1380-1396.
- 4.Xomidova M. Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik. Filol.fan. fals.dok.(PhD)...Diss. Toshkent, 2021.

- 5.Фатеева, Н.А. Интертекстуальность и её функции в художественном дискурсе Текст. / Н.А. Фатеева // Известия АН. Сер. литературы и языка, 1997. Т. 56.
6. Qodirberganovna, A. N. (2024). Axiological Problems in Contemporary Linguistics. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(1), 190-192.
7. Адамбоева, Н. (2023). Хушмуомалалик категорияси максималларини салбий баҳоланишининг вербализацияси. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(14), 4-6.
8. Адамбоева, Н. (2023, December). Хушмуомалаликни амалга ошириш воситалари ва матннинг мазмун тоифалари. In Fergana state university conference (pp. 182-182).
9. Adamboeva, N. (2023). Xushmuomalalik kategoriyasini aksiolingvistik jihatdan tasniflash nazariyasi. Interpretation and researches, 1(7).
10. Qodirberganovna, A. N. РОЛЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ И СТУДЕНТОВ В КОММУНИКАТИВНОМ МЕТОДЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ЯЗЫКА В КЛАССЕ THE ROLE OF TEACHERS AND STUDENTS IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING CLASSROOM. Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на, 45.
11. Adamboeva, N. (2023). Aspects of axiological linguistic analysis. Collection of scientific papers «SCIENTIA», (March 10, 2023; Valencia, Spain), 163-166.
12. Qodirberganovna, A. N. (2023). Representation of Maximums in Axiolinguistic Evaluation of Politeness Category in Uzbek and English Languages. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(6), 39-41.